

**QONUNCHILIK HUJJATLARI, TOPSHIRIQLAR HAMDA HUKUMAT
QARORLARINING IJROSI YUZASIDAN 2026-YIL YANVAR-AVGUST VA AVGUST
OYLARIDA “O‘ZAGROINSPEKSIYA”DA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR**

“O‘zagroinspeksiya” tomonidan ijro intizomiga rioya qilish bo‘yicha ishlar qonunchilik hujjatlari talablari doirasida davom ettirilmoqda va belgilab berilgan chora-tadbirlarning samaradorlik va natijadorligiga katta e‘tibor berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilning 10-fevraldagi **PF-6166**-sonli, 2025-yil 25-iyuldagi **PF-117**-son Farmonlari hamda 31 maydagi **PQ-5132**-sonli qarori talablaridan kelib chiqib, ijro intizomiga rioya qilinishi bo‘yicha **har haftaning dushanba va juma kuni** muhokama qilinib, o‘tkazilayotgan apparat yig‘ilishlari kengaytirilgan yig‘ilish hamda rayyosat yig‘ilish bayonlari rasmiylashtirildi va har bir topshiriq ijrosi ta‘minlanishi nazoratga olinib kelinmoqda.

“**Ijro.gov.uz**” tizimida bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan tahliliy axborotlar hamda Inspeksiyaga kelib tushgan qonunchilik hujjatlari ijrosini muddatidan oldin ta‘minlash maqsadida har oyda **Kalendar-grafik jadvallari** ishlab chiqilmoqda va shu asosida ishlar kunlik tashkil etilib, natijasi bo‘yicha **Vazirlar Mahkamasiga** axborot kiritilib kelinmoqda.

Tizimda O‘zbekiston Respublikasining **qonunlari**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **Farmon, qaror, farmoyishlari**, Prezident Administratsiyasi rahbarining **topshiriqlari** hamda Hukumatning **qaror va farmoyishlari** ijrosi qat’iy nazoratga olingan.

2026-yilning **yanvar-avgust oylarida 101** ta qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari bo‘yicha **434** ta topshiriq bandi ijro muddati bo‘yicha nazoratga olinib, amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tegishli davlat organlari va tashkilotlariga axborotlar kiritilishi hamda to‘liq nazoratdan yechilishi ta‘minlandi (*jadval ilova qilinadi*).

Shu jumladan, “Ijro.gov.uz” tizimida “O‘zagroinspeksiya” ning ish yurituvida bo‘lgan **avgust oyi** muddatli **12** ta qonunchilik hujjatlari bo‘yicha **19** ta qonunchilik topshiriqlari ijrosi yuzasidan axborotlar tegishli davlat organlariga kiritilib, barcha topshiriqlar belgilangan tartibda nazoratdan yechilishi ta‘minlandi.

2026-yil 26-avgust holatiga “Ijro.gov.uz” tizimi orqali Prezident hujjatlari ijrosi yuzasidan **54** ta hujjat yuzasidan **124** ta topshiriqlari bo‘yicha ishlar davom ettirilmoqda.

Shuningdek, **avgust oyida** Inspeksiyaga “Ijro.gov.uz” tizimi orqali Vazirlar Mahkamasining **3** ta hujjati bo‘yicha kelib tushgan **14** ta topshiriqlar yuzasidan **nazorat rejalari ishlab chiqildi** va **tegishli ijrochilarga yo‘naltirildi**.

Shu bilan birga, “Ijro.gov.uz” tizimida “O‘zagroinspeksiya” ning ish yurituvida bo‘lgan **avgust oyi** muddatli Vazirlar Mahkamasining **13** ta hujjati yuzasidan **31** ta topshiriq’i yuzasidan ishlar tashkil qilinib, belgilangan tartibda nazoratdan yechilishi ta‘minlandi.

2026-yil 26-avgust holatiga “Ijro.gov.uz” tizimi orqali Vazirlar Mahkamasining **18** ta hujjat ijrosi yuzasidan **96** ta topshiriq bo‘yicha ishlar davom ettirilmoqda.

2026 yil 26-avgust holatiga Prezident Administratsiyasi va Hukumat komissiyasining **hujjatlari bo'yicha muddati o'tgan topshiriqlar mavjud emas.**

Shuningdek, tizimdagi qonunchilik hujjatlari bo'yicha keyingi oyda ham topshiriqlar ijrosini qat'iy ta'minlash maqsadida 2026-yil 24-avgustda **sentabr oyida "Ijro.gov.uz"** tizimida bajarilishi lozim bo'lgan nazoratdagi topshiriqlarni bajarishning kunlik **"Kalendar-grafik"** va ijrosini samarali tashkil etish bo'yicha **"Yo'l xaritasi"** Vazirlar Mahkamasiga taqdim qilindi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi